

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

XAKIMJONOVA HAMIDAXON XAKIMJON QIZI

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG
XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH
(Malaka oshirish tizimi misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xakimjonova Hamidaxon Hakimjon qizi

Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish

(Malaka oshirish tizimi misolida).....3

Хакимжонова Хамидахон Хакимжон кизи

Развитие профессиональной компетентности руководящих и педагогических кадров системы профессионального образования на основе андрагогического подхода (На примере системы повышения квалификации).....23

Khakimjonova Hamidakhon kizi

Development of professional competence of management and teaching staff of the vocational education system based on the andragogical approach

(On the example of the advanced training system).....47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works51

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.12.2019.PED 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

XAKIMJONOVA HAMIDAXON XAKIMJON QIZI

**PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMI RAHBAR VA PEDAGOG
XODIMLARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
ANDRAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH
(Malaka oshirish tizimi misolida)**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.Phd/Ped1593-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta'limni rivojlantirish institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ipitvet.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ashurova Sanobar Yuldashevna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Hamidov Jalil Abdurasulovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: **Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "15" 04 soat 11.00dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Professional ta'limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (39 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, 2-Chimboy ko'chasi, 96-uy. Tel.: (+99871) 246-92-17; faks: (+99871) 246-92-17).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "4" 04 kuni tarqatildi.
(2024 yil "4" 04 dagi 15 - raqamli reestr bayonnomasi).



R.X.Djuraev
darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

D.O.Nimmataliev
darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

X.Sh.Kadirov
darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahon hamjamiyatida ta'lim tizimining barcha shakllarida uzluksiz ta'limga ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. YUNESKO tashkiloti tomonidan 2030 yilgacha qabul qilingan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Hayot davomida ta'lim olishga imkoniyat yaratish" tamoyiliga alohida e'tibor qaratilib, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), Ta'lim hamma uchun (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlarida (Millennium Development Goals (MDGs)) ham kattalarning o'qishi va o'rganishi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan. CONFINTEA VII Marokash harakat ramkalarida "... biz ta'lim beruvchilarni, jumladan, kattalar ta'limi va o'qish bilan shug'ullanadigan ko'ngilli murabbiylar va boshqa mutaxassislarning muhim rolini ta'kidlaymiz"¹. Shunday ekan, malaka oshirish jarayonida andragogik yondashuv va tamoyillarga asoslanish bo'yicha tadqiqotlarni amalga oshirish talab etiladi.

Dunyoda kattalarning ta'lim olishi yildan-yilga tobora dolzarb bo'lib bormoqda va kattalar ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyalar hamda maxsus davlat dasturlari ishlab chiqilib, kattalarning turli xil ta'lim shakllari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslaridagi ishtirokini sezilarli darajada oshirishning umumiy tendensiyasi oshib bormoqda. AQShda katta yoshdagilarning ehtiyojlarini inobatga olish, Buyuk Britaniyada kattalar ta'limi va uzluksiz kasbiy ta'lim olish masalalariga e'tibor qaratish, YUNESKO tomonidan esa "bilim olish, shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga, shu jumladan o'rganish va kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorlashga qaratilgan ongli harakatlar yig'indisidir" degan fukr ilgari suriladi. Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish zarurati ta'lim tizimining kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji, andragogik nazariya va amaliyotda ushbu yo'nalishning yetarlicha tadqiq etilmaganligi asos bo'ladi.

Mamlakatimizda professional ta'lim tizimi pedagog xodimlarini tayyorlash va rahbarlarning malakasini oshirish bo'yicha tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar va imkoniyatlar kengaymoqda, "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyillari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renesans poydevorini barpo etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga muvofiq "Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish"² kabi ustivor vazifalar belgilandi. Shu nuqtai nazardan professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" gi O'RQ-637-sonli Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7

¹ <http://surl.li/jgotn>.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21fevralda "2030 yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 83-conli Qarori.

fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli hamda 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 sonli, 2019 yil 6 sentabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi “Professional ta‘lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 466-sonli, shu bilan birga, 2023-yil 7 dekabrdagi “Professional ta‘limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 648-sonli Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Professional ta‘limning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni, rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjabayev, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, M.B.Urazova, Sh.S.Sharipov, J.A.Hamidov, D.O.Ximmataliyev, O.A.Quysinov, H.Sh.Kadirov, R.K.Choriyev, Z.T.Raximov, B.B.Ergashev, N.F.Abdunazarova, G.Yeldasheva, B.IIhomov, B.S.Nuridinov³ va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Uzluksiz ta‘limda “kompetensiya” va “kompetentlilik” kabi tushunchalarining mazmun-mohiyatini o‘rganish va tahlil qilish, kasbiy kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirish masalalari bo‘yicha respublikamiz olimlari N.A.Muslimov, M.T.Mirsoliev, B.A.Nazarova, M.B.Urazova, O.A.Quysinov, Sh.S.Sharipov, N.N.Karimova, Sh.Pozilova⁴ va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

³ Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. Дис. ... д-ра пед. наук. – СПб., 1995. – 43 с.; Курбанов Ш.Э. Социально педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров: Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2000. – 527 с.; Xodjabayev A.R., Xusanov I. Professional ta‘lim metodologiyasi. – T. Fan va texnologiya, 2007. – 192 b.; Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007. – 249 b.; Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlarini yaratishning nazariy va uslubiy asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2005. – 274 b.

⁴ Muslimov N.A. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. d-ri ... Dis. – T., 2007.; Mirsoliev M.T. Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T., BIMM, 2019. – 225 b.; Nazarova B.A. Pedagogika kollejlari bo‘lg‘usi o‘qituvchilarining kasbiy layoqatini tarbiyalash: Ped. fanl. n-i ... Dis. – T., 2009. B.170.; Urazova M.B. Теория и практика подготовки будущего педагога профессионального образования к проективной деятельности: Автореф. Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2012.; Karimova N.N. Paradigmal yondashuv asosida professional ta‘lim pedagog kadrlarini kasbiy-pedagogik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T., 2023.; Pozilova Sh.X. Oliy ta‘lim muassasasi o‘qituvchilarini malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida kreativ o‘qitish metodikasi: Ped. fanl. d-ri (DSc) ... Dis. – T., 2019. 53 b.

Ta'lim jarayonini andragogik yondashuv asosida tashkil etish va katta yoshdagilarni o'qitishning nazariyasi va amaliyoti masalalari, kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha N.Abdunazarova, G.Yeldasheva, A.Zokirov, B.Ilhomov, O.Sarmonov, kattalar ta'limi jarayonida pedagogik innovatsiyalarga oid tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan A.A.Abdukadirov, N.Azixzodjaeva, M.R.Isxakova, I.M.Raxmanova, K.Umatalieva, D.Yunusovalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kattalar ta'limi jarayonida andragogik yondashuv va uning nazariy-metodologik asosi, andragogik modelda ta'lim jarayonining konsepsiyasi, andragogik sharoitlarda kasbiy rivojlanishning nazariy asoslari va tizimi bo'yicha xorijiy mamlakatlarda M.Gromova, A.Kukuyev, Ye.Rijkova, N.Skryabina, V.Yarish va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari orqali tadqiq qilingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot ishi Nemis Xalq universitetlari Assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi Filialining 09/08-22-BMZ-sonli "O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar ta'limi tizimidagi xodimlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik qilish" (2018-2023 yy.) mavzusidagi xalqaro grant loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi professional ta'lim tizimi rahbar va pedagoglarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlanishga erkinlik, tajribaga tayanish, ehtiyojga asoslanish, tenglik pozitsiyasi, hamkorlikni yo'lga qoyish yondashuvlari asosida rivojlantirishning ilmiy tahlilini o'tkazish, pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

malaka oshirish jarayonida rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar komponentini ishlab chiqish;

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarida andragogik yondashuv asosida tashkiliy-pedagogik sharoitlarni aniqlash orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish;

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarini andragogik yondashuv asosida kasbiy kompetentligining rivojlanganlik darajasi va baholash mezonlarini matematik-statistik tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish jarayoni.

Tadqiqot predmeti professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari belgilangan maqsad hamda vazifalarni hal etishda quyidagi metodlardan foydalanildi: tadqiqot ishida mavzuga oid pedagogik, psixologik adabiyotlar, o'quv rejalari va dasturlarni o'rganish va tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), pedagogik-ijtimoiy (test, anketa-so'rov, suhbat, kuzatish) va tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda natijalarga matematik va statistik ishlov berish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish traektoriyasi bosqichlari erkinlik, tajribaga tayanish, ehtiyojga asoslanish, tenglik pozitsiyasi, hamkorlikni yo'lga qoyish yondashuvlarini qo'llash asosida rivojlantirilgan;

malaka oshirish jarayonida rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi o'z-o'zini rivojlantirish uchun motivatsiyasi, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, o'quv jarayoniga ixtiyoriy jalb qilish, ta'lim jarayonini ob'ektiv baholash va tuzatish imkonini beruvchi tanqidiy fikrlashi, ta'lim tarkibi, jarayoni, ta'lim natijalari haqida fikr yuritish qobiliyati, ta'lim beruvchining andragogik kompetensiyasi, o'qitishning andragogik modelini amalga oshirishning sub'ektiv omillar tizimi ishlab chiqilgan;

andragogik yondashuv asosida tashkiliy - pedagogik sharoitlarni aniqlash orqali rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan va "Ta'lim natijalariga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish", "Andragogika, katta yoshdagilar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari", "O'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash", "Stajirovka", "Professional ta'lim muassasalarida katta yoshdagilar ta'limini tashkil etish" o'quv modullari mazmuniga singdirilgan;

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining andragogik yondashuv asosida kasbiy kompetentligini rivojlanganlik darajasi (optimal, potensial, minimal) va baholash mezonlari (motivatsion-maqсадni belgilash, aksiologik, kognitiv, operativ, analitik-refleksiv, integral, individual-ijodiy) takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligi mazmuni va komponentlari aniqlanib, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2022 yil 25 iyundagi ZX-01/01-712-sonli ma'lumotnomasi);

professional ta'lim muassasasi rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020 yil 21 sentabr 87-05552-sonli xati asosida "Kollejlar va texnikumlarda o'qitiladigan fan (modul) va amaliyot dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha" tavsiyanomasi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Professional ta'limni rivojlantirish instituti va Nemis Xalq Universitetlari Assotsiatsiyasining (DVV) O'zbekistondagi Filiali buyurtmasi asosida ishlab chiqilgan "Curriculum globALE – Kattalar ta'limi va o'qishi global dasturi" uslubiy qo'llanmasi tayyorlangan (Professional ta'limni rivojlantirish institutining 2022 yil 25 iyundagi ZX-01/01-712-sonli ma'lumotnomasi);

"Ta'lim natijalariga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish" moduli bo'yicha elektron qo'llanma tayyorlangan va amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzurdagi "Intellectual mulk Markazi" ning 2021 yil 9 fevraldagi 003191-raqamli guvohnomasi);

“Kasbiy kompetentlilik” moduli bo‘yicha elektron qo‘llanma tayyorlangan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzurdagi “Intellectual mulk Markazi” ning 2021 yil 9 fevraldagi 003190-raqamli guvohnomasi);

Professional ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlari ta‘lim jarayonini tashkil etishga yo‘naltirilgan “Andragog xazinasini” nomli ilmiy ishlanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzurdagi “Intellectual mulk Markazi” ning 2023 yil 25 avgustdagi 006673-raqamli guvohnomasi).

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuvlar, nazariy va amaliy ma‘lumotlarining ishonchli manbalardan olinganligi, usullar, ishda keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlilida asoslanganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati professional ta‘lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning mazmunan yangilanishi, “andragogika” atamasining ilmiy tahlillar asosida ochib berilganligi, andragogikaning professional ta‘lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish jarayoniga kirib kelishi, nazariyasi, metodologiyasi, xususiyatlarining asoslanganligi; “Nima uchun? Asoslang”, “Kayfiyat”, “Ahil jamoa”, “Finish”, “Bilimdon” metodlari, metodika, model, elektron ta‘lim resurslari yaratilganligi, shuningdek, mazkur modeldan samarali foydalanish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati malaka oshirish jarayonida tavsiya etilayotgan metodikalar, malaka oshirish jarayonini takomillashtirish, rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda andragogik yondashuvni qo‘llash, rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini “Andragog xazinasini” metodlar jamlanmasi yordamida rivojlantirish bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Professional ta‘lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy-metodologik amaliy takliflar asosida:

professional ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarida o‘z-o‘zini rivojlantirish motivatsiyasi, o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, o‘quv jarayoniga ixtiyoriy jalb qilish, ta‘lim jarayonini ob‘ektiv baholash va tuzatish imkonini beruvchi tanqidiy fikrlash, ta‘lim tarkibi, jarayoni, ta‘lim natijalari haqida fikr yuritish qobiliyati hamda ta‘lim beruvchining andragogik kompetensiyasini rivojlantirishga oid takliflar “Kattalar ta‘limi global dasturi Curriculum globALE” uslubiy qo‘llanmasi hamda “Kollejlarda va texnikumlarda o‘qitiladigan fan (modul) dasturlarini ishlab chiqish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” didaktik ta‘minoti mazmuniga kiritilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 2 avgustdagi 4/17-4/4-2896-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ta‘lim muassasalarining o‘quv-me‘yoriy hujjatlari andragogik yondashuv asosida ishlab

chiqilishiga erishilgan;

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish traektoriyasi bosqichlari, erkinlik, tajribaga tayanish, ehtiyojga asoslanish, tenglik pozitsiyasi, hamkorlikni yo'lga qoyish yondashuvlarini qo'llashga oid takliflar "O'zbekiston Respublikasi kasb-hunar ta'limi tizimidagi xodimlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish" nomli ilmiy-amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 2 avgustdagi 4/17-4/4-2896-sonli ma'lumotnomasi). Natijada professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligi oshishiga xizmat qilgan;

andragogik yondashuv asosida tashkiliy - pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash orqali rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi "Ta'lim natijalariga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish", "Kasbiy kompetentlik" modullari bo'yicha elektron didaktik ta'minot hamda "Andragog xazinasini" metodik ishlanmalar majmuasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 2 avgustdagi 4/17-4/4-2896-sonli ma'lumotnomasi). Natijada professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlarining o'z ustida mustaqil ishlashi orqali kasbiy kompetentligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ishlar, jumladan, 3 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta uslubiy tavsiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan 6 ta xorijiy va 4 ta respublika miqiyosidagi jurnallarda maqola hamda O'zbekiston Respublikasi davlat intellektual mulk agentligidan 3 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, amalda joriy etilishi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining "**Andragogik yondashuv asosida professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida bugungi

kunda uzluksiz ta'lim olishning zarurati, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, rahbar va pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish, muqobil malaka oshirish, institut yoki fakultetlarda bevosita o'qish turlaridan foydalangan holda kompetensiyaviy yondashuv asosida malaka oshirishlari, malaka oshirishning bugungi kun holati hamda zamonaviy malaka oshirish tizimi tamoyillari, rivojlantirishning eng muhim vazifalari, yonalishlarining nazariy asoslari o'rganilgan.

Mamlakatimizda kattalar ta'limi va uni rivojlantirish me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlanib, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda ta'lim xizmatlarini sezilarli darajada kengaytirishga asos bo'ladigan ta'lim olishning turli shakllari, jumladan, "katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish" ning kiritilganligi⁵, "Hayot davomida ta'lim olish tamoyillari asosida katta yoshdagilar butun hayoti davomida bilimlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi"⁶, rahbar va pedagog xodimlarning ko'nikma va malakalarini boyitish, rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Yuqoridagi qaror va farmoyishlar bu vazifalarni ijro etishda dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda hamda qabul qilinayotgan hujjatlarning bosh maqsadi malaka oshirish tizimida ta'lim sifatini ko'tarishdir. Malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi faoliyati davrlar o'tishi bilan takomillashib, zamon talablariga mos ravishda tashkil etib kelinmoqda.

Kasbiy kompetensiya — bilim, ko'nikma va amaliy tajriba asosida kasbiy faoliyatga tegishli vazifalarni bajarishda faoliyat yuritish qobiliyati⁷.

Kasbiy kompetentlik mutaxassisning ishbilarmonlik va shaxsiy fazilatlarini aks ettiruvchi, ma'lum bir kasbiy faoliyat turida maqsadga erishish uchun yetarli bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba darajasini, shuningdek, mutaxassisning ma'naviy pozitsiyasini aks ettiruvchi xususiyat hisoblanadi. Ilmiy tadqiqot ishida biz kasbiy kompetentlikka shunday ta'rif beramiz: "Kasbiy kompetentlik o'z faoliyati doirasida yuqori darajani egallash, keyingi kasbiy rivojlanishini mustaqil loyihalash, odatiy kasbiy vazifalarni hal qilish va o'z faoliyati natijalarini baholash, mutaxassisligi va lavozim vazifalari doriasida yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda egallash qobiliyatidir".

Demak, kompetentlik tushunchasi vaziyatli yondashuv asosida quriladi, jumladan, kasbiy kompetentlik mazmunining jihatlari: muammoli-amaliy, ya'ni vaziyatni tan olish va tushunishning adekvatligi, maqsadlar, vazifalar va semantik me'yorlarni adekvat belgilash va samarali amalga oshirish – vaziyatni yanada umumiy madaniy kontekst bilan adekvat tushunish; moddiy – vaziyatni, uning ma'nosini, maqsadlarini, vazifalarini va me'yorlarini muhim qadriyatlar nuqtai nazaridan adekvat baholash qobiliyati.

Andragogik yondashuv ta'limning andragogik tamoyillarini o'z ichiga oladi, o'ziga xos qadriyat yo'nalishlari bilan ajralib turadi va jarayon amaliy faoliyatda

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmoni.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi "Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 466-sonli Qaroriga 1-ilova.

vujudga keladi. Professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda andragogik yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tajribaga tayanish – rahbar va pedagoglarning kasbiy va shaxsiy tajribasiga tayanish;

ehtiyojga asoslanish – rahbar va pedagoglarning ta'lim ehtiyojlariga mos keladigan o'qitish mazmunini tashkil etish va taqdim etish;

tenglik pozitsiyasi – bu jarayonni tashkil etuvchi ta'lim oluvchi – rahbar, pedagog va ta'lim beruvchi – andragoglarning teng maqomli o'rni (pozitsiyasi) ni belgilash;

hamkorlikni yo'lga qo'yish – ta'lim jarayoni barcha ishtirokchilarining dialogli o'zaro hamkorligi, bunda nafaqat ta'lim beruvchining bilim va ko'nikmalari, balki ta'lim oluvchilarning tajribasi va bilimlari ham muhim;

rivojlanishga erkinlik – mustaqil, mazmunli bilim olish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yengillashtirish, rag'batlantirish, rahbar va pedagoglarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish, ularga katta erkinlik va mas'uliyat berish.

Malaka oshirish jarayonida rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligi o'quv jarayonining boshqa sub'ektlari, birinchi navbatda, ta'lim beruvchilar bilan o'zaro munosabatlar jarayoni sifatida rivojlanadi. Biz tadqiqotlarimizda “rahbar va pedagoglarning ta'limiy faoliyatini o'rganish – bu ta'lim maqsadlari va uning vazifalarida nazarda tutilgan natijalarga erishish uchun ta'lim tashkilotchilari, ta'lim beruvchilar (andragoglar) va malaka oshirish muassasasining boshqa xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan izchil harakatlar ketma-ketligi”, degan ta'rifga tayanamiz.

Rahbar va pedagogning ta'lim faoliyati sub'ekti sifatidagi xususiyatlarini tahlil qilish bizga umumiy xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi:

- mustaqillik, o'zini o'zi boshqaruvchi shaxs sifatida anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirishning ustunligi;

- o'zi va boshqa ta'lim oluvchilar uchun o'rganish manbai bo'lgan hayotiy, shaxsiy va boshqa noyob tajribaning mavjudligi;

- ta'lim beruvchi o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda murojaat qilishi mumkin bo'lgan professional tajriba, tayyor, sinovdan o'tgan qarorlar qabul qilish algoritmlarining mavjudligi;

- o'qish/o'rganish tajribasining mavjudligi (o'rganish qobiliyati);

- ong osti tajribaning mavjudligi;

- hayotiy, kasbiy muammolarni hal qilish uchun maxsus motivatsiya, tajribani boyitish, foydalilik, muvaffaqiyat motivatsiyasi (qiziqish);

- hodisalar (jarayonlar, sub'ektlar) ni baholash mezonlarining shakllangan tizimini mavjudligi;

- o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni, shakllangan kompetensiyalarni darhol amalga oshirishga intilish.

Tadqiqot ishining **“Professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ta'lim mazmuni,

o'quv faoliyatining modellashtirilishi, modellashtirishning maqsadi, mutaxassis modeli ochib berilgan. Rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli takomillashtirilib, model konsepsiyasi va g'oyasi ochib berilgan.

Rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni ijtimoiy va kasbiy muhitdagi har qanday o'zgarishlar uning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.


Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoni doimiy, uzluksiz xususiyatga ega va har bir bosqichda u faoliyatni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, uning shakllanish darajalarini aniqlash, ularni tavsiflash imkonini beradi, shuning uchun uni o'lchash va rahbar va pedagog ish samaradorligini baholash mumkin bo'ladi. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish dinamikasi ko'pincha uning kompetentlik darajasi bilan belgilanadi.

Rahbar va pedagoglarning kompetensiyasining rivojlanish dinamikasi harakatlar va vazifalarni ijodiy bajarishning reproduktiv darajasining o'zgarishi kompetentlikning faoliyat va kommunikativ komponentlarini uyg'unlashtirish va murakkablashtirishi bilan belgilanadi.

Professional ta'lim muassasasi rahbar va pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelini tuzishda ichki elementlar sifatida ta'lim jarayonini tashkil etishning maqsadi, mazmuni, yondashuv va tamoyillari, ta'lim shakllari, metodlari va o'quv natijalarini baholash kabi o'zaro bog'liq komponentlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, biz andragogik ta'lim xususiyatlari asosida modellashtirishni amalga oshirar ekanmiz, bunda tinglovchi ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida yetakchi rol o'ynashini e'tiborga oldik.

Ilmiy tadqiqot ishlari natijasida professional ta'lim tizimi rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli va uning tarkibiy komponenti takomillashtirildi (1-rasm).


Professional ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan tizimli-funksional model malaka oshirishga jalb etilgan rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning o'zaro bog'liq bloklari, tarkibiy qismlari va darajalarini aniqlash; qurilgan modelning o'zgaruvchanligini aniqlash imkonini beradi. Ushbu model rahbar va pedagoglarning malakasini oshirish jarayonini tashkil etishning mavjud modellarini yangi mazmun bilan to'ldirish imkonini beradi va muqobil hisoblanadi. Tizimli-funksional modelning maqsadi rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda foydalaniladigan asos bo'lishdan iborat. Shunga asoslanib, biz rahbar va pedagogning kasbiy kompetentligini ularning shaxsiyati va faoliyatining ajralmas ko'p bosqichli kasbiy ahamiyatli xususiyati sifatida ko'rib chiqamiz, samarali kasbiy tajribaga vositachilik qilamiz, professional ta'lim muassasalarida ishlaydigan rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligining mohiyati va komponenti tarkibini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. O'qitishning andragogik yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda asosiy rol ta'lim oluvchiga qaratiladi.



1-rasm. Rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli

Katta yoshdagi ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi, faol elementi hisoblanadi. Malaka oshirish mobaynida rahbar va pedagog xodimlar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko'nikmalari rivojlanib boradi⁸.

Rivojlantiruvchi trening ko'rinishidagi mashg'ulotlarda qo'llaniladigan mashqlar, ularning ahamiyati hamda amaldagi joriy metodikasi rahbar va pedagogning o'z-o'zini yaxshi bilishi, o'z ruhiy holatini va ulardagi xatti-harakatlarni, o'z hissiy holatini tartibga solish, xavotirni kamaytirish, qat'iylikni kamaytirish uchun sharoit yaratishga qaratilgan (2-rasm).



2-rasm. Rivojlantiruvchi trening ko'rinishidagi mashg'ulotlarda qo'llaniladigan mashqlar, ularning ahamiyati hamda amalga joriy etish metodikasi

Andragogik dars o'tish metodikasini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, tinglovchilarning ehtiyojlari aniqlanadi. Andragogik yondashuv asosida rivojlantiruvchi trening mashqlaridan foydalanish orqali rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga erishiladi.

Rahbar va pedagoglarning malaka oshirish kurslari o'quv rejalariga "Ta'lim natijalariga mo'ljallangan o'quv jarayonini tashkil etish", "Andragogika, katta yoshdagilar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari", "O'quv-me'yyoriy hujjatlar bilan ishlash", "Stajirovka", "Professional ta'lim muassasalarida katta yoshdagilar ta'limini tashkil etish" modullari kiritilib, mashg'ulotlarni o'tkazishda "Andragog xazinasini" nomli ilmiy ishlanmaga kiritilgan "Nima uchun? Asoslang", "Kayfiyat", "Ahil jamoa", "Finish", "Bilimdon" metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar tinglovchilarning mavzuga kirish, motivatsiyani oshirish, diqqatni jalb etishlariga xizmat qilib, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "**Ta'lim jarayonida rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini andragogik yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlari**" deb nomlangan uchinchi bobida malaka oshirish

⁸ Ismoilova N., Abdullayeva D. Trening o'tish metodikasi. // Metodik qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi, 2009.

jarayonida andragogik yondashuv asosida rahbar va pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, tajriba-sinov ishlari natijalari tahlili yoritib berilgan.

Tavsiya etilgan qadamni isbotlash bo'yicha tajriba ishlari Professional ta'limni rivojlantirish instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tashkiloti, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti huzuridagi "Malaka oshirish va qayta tayyorlash" tashkiloti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi negizida amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlari 2016-2022 yillar uch bosqichda, ya'ni aniqlovchi va izlanish (2016-2018), shakllantiruvchi (2019-2020), yakuniy (2020-2022) bosqichlarda o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari Professional ta'limni rivojlantirish instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash markazi, Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti huzuridagi "Malaka oshirish va qayta tayyorlash" tashkiloti, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazidan jami 695 nafar tinglovchi ishtirok etdi. Shundan nazorat guruhida 357 va tajriba guruhida 338 nafar professional ta'lim muassasalari rahbar va pedagog xodimlari ishtirok etdilar. Professional ta'lim rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajalarini aniqlashda 1, 2 - jadvalda berilgan mezon va darajalardan foydalanildi.

1-jadval

Professional ta'lim rahbar xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajalarini aniqlashning mezon va darajalari

Mezonlar	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish darajalari		
	Yuqori (optimal)	O'rta (potensial)	Past (minimal)
Kognitiv	Jamoa a'zolarining intellektual qobiliyatlarini tadqiq etadi va bashorat qiladi. Faoliyati mazmuni va unga aloqador faoliyatlarini, nostandart vaziyatlarda bilim, tajribalarni qo'llashni, tajribani bir sohadan boshqasiga o'tkazishni biladi. Kasbiy muammolarni aniqlaydi, ularni tahlil qiladi va hal etadi.	Rahbarlik faoliyatini anglaydi. Tarbiyaviy faoliyatning uslub va shakllariga egalik qiladi. Umumiy ko'rinishdagi, tahminiy, noaniq ko'nikmalarga ega. Kasbiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va hal etishda qiynaladi.	Rahbarlik faoliyatining uslub va shakllarini o'zlashtiradi. Kerakli ko'nikmalarga ega emas va qiyinchiliklarni boshdan kechirish, tajriba orttirish o'zlashtirishga intilmaydi. Kasbiy muammolarni ko'rmaydi, ularni yengib o'ta olmaydi.
Operatsion	Psixologik-pedagogik, korreksion faoliyatining optimal turlarini tanlaydi. Rejalashtirilgan rahbarik va korreksion harakatlar tizimiga atrofdegilarning javob xarakterini oldindan ko'ra biladi. Jamoa a'zolariga individual va differensial yondashuvni samarali amalga oshiradi. Ta'lim-tarbiya	Faqat odatiy vaziyatlarda qaror qabul qilishga qodir. Jamoa a'zolariga individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni sinab ko'radi va ba'zan samarali amalga oshiradi.	Faoliyatining zarur turlarini o'zlashtiradi. Intuitsiya (sezgi) zaif ifodalangan. Jamoaning fikri bilan qiziqmaydi va ularning rejalashtirilgan o'zlarini tuzatish harakatlariga bo'lgan javoblarining tabiatini oldindan ko'ra olmaydi, individual va differensial yondashuvni amalga oshirishi qiynaladi.

	jarayonini tashkil eta oladi.		
Analistik-refleksiv	Faoliyatini tahlil qilish, refleksiya va baholashni amalga oshirish, tuzatishga qodir. Kasbiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qiladi. Amaliyotiga samarali shakllar, usullarni umumlashtirish, qo'llash uchun boshqa tajribalarni tahlil qila oladi.	Kasbiy faoliyatini qisman tahlil qilish, aks ettirish va baholashni amalga oshiradi, tuzatishga qisman qodir. Kasbiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarning mohiyatini tahlil qiladi. Samarali shakl, usul va uslublarni amaliyotga o'tkazish maqsadida boshqa tajribalarni tahlil qila oladi.	Kasbiy faoliyatini qisman baholaydi, yutuq va kamchiliklarni tahlil qila oladi. Boshqa rahbarlarning tajribasini tahlil qilishda qiynaladi, samarali shakllar, usullarni amaliyotiga qisman amalga oshiradi.
Integral	Faoliyatini bir butun sifatida, uning vazifalari, maqsadlari, usullari, shartlari, natijalari birligida qanday ko'rishi, sabab va natija munosabatlarini biladi. Individual rahbarlik mahoratni baholashdan o'z ishining umumiy samaradorligi va natijadorligini baholashga o'tishga qodir. Natijalarini yozib olishni biladi. Tajribasini tahlil qiladi, umumlashtiradi va tavsiflaydi. Faoliyatini muvaffaqiyatli bashorat qiladi.	Faoliyatini bir butun sifatida, uning vazifalari, usullari, shartlari, natijalarining birligida ko'ravermaydi. Sabab-natija munosabatlarini tushunadi. Jarayonni qanday vaqtga to'ldirishni, o'z ishining natijalarini yozib olishni biladi. O'z tajribasini tahlil qilish va umumlashtirishda qiynaladi. Qoidaga ko'ra, u o'z faoliyatini bashorat qiladi.	Faoliyatini bir butun sifatida, uning vazifalari, maqsadi, usullari, shartlari, natijalari birligida ko'rishga qiynaladi. Sabab-natija munosabatlarini ko'rmaydi va tushunmaydi. Rahbarlik mahoratini baholaydi. Ish uslublari va natijalarini qisman bog'laydi. Tajribasini tahlil qilish, umumlashtirish va tasvirlashda juda qiynaladi. Faoliyatini bashorat qila olmaydi.

2-jadval

Professional ta'lim pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajalarini aniqlashning mezon va darajalari

Mezonlar	Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish darajalari		
	Yuqori (optimal)	O'rta (potensial)	Past (minimal)
Motivatsion maqsadni belgilovchi	Ta'lim faoliyati motivlarini aniqlay oladi. Ta'lim oluvchilar bilan ishlashga tayyor. Malakasini muntazam ravishda oshirib boradi, o'z-o'zini rivojlantirishga, kasbiy o'sishga intiladi. faoliyatini oqilona rejalashtirish zaruratini his qiladi, zarur holda o'zgartira oladi.	Faoliyatining motivlarini mustaqil ravishda belgilaydi, qiziqadi, ta'lim oluvchilar bilan ishlashga qisman tayyor. O'z malakasini muntazam, lekin tizimli bo'lmagan holda oshiradi. Rivojlanish va professional o'sishga qisman intiladi. Shaxsiy kasbiy faoliyatni rejalashtiradi o'zgartira oladi.	Faoliyati motivlarini faqat hamkasblar yoki ma'muriyat yordamida aniqlaydi. Ta'lim oluvchilar bilan ishlashga tayyor emas. Malakasini muntazam ravishda oshirmaydi. Professional darajada rivojlanishga intilmaydi, harakatlar rejasi mavjud emas.
